

UDK 37.013.42:316.4.051.63

KATTA AVLOD TAJRIBASI ASOSIDA O‘QUVCHILAR TA’LIM-TARBIYASINING INNOVATION PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Niyozova Nilufarxon Abdulhamidovna
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nilufarniyozova793@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-3560-8150>

Science ID: MNM-0526-0243

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21935061>

Annotatsiya. Maqolada xalqaro, MDH va milliy manbalar asosida katta avlodning hayotiy hamda kasbiy tajribasini o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasiga kiritish shartlari tahlil qilindi. Integrativ tahlil asosida tajribani saralash, avlodlararo hamkorlikni tashkil etish, refleksiya va natijani baholashni birlashtiruvchi to‘rt komponentli mexanizm taklif etildi. Katta avlod tajribasi avtomatik ravishda tarbiyaviy mazmunga aylanmasligi, u pedagogik maqsad, yoshga moslik, daliliy ishonchlilik va o‘zaro hurmat mezonlari asosida vositalanishi zarurligi asoslandi. Model maktab, oila va mahalla hamkorligida mentorlik, hayotiy hikoya, qo‘shma loyiha hamda raqamli hikoyachilikni tizimli qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: katta avlod tajribasi, avlodlararo ta’lim, pedagogik mexanizm, mentorlik, refleksiya, maktab-oila-mahalla hamkorligi.

Аннотация. В статье на основе международных, национальных источников и публикаций стран СНГ проанализированы условия включения жизненного и профессионального опыта старшего поколения в обучение и воспитание учащихся. Интегративный анализ позволил предложить четырехкомпонентный механизм, объединяющий отбор опыта, организацию межпоколенческого сотрудничества, рефлексии и оценивание результатов. Обосновано, что жизненный опыт приобретает воспитательное значение только после педагогического опосредования с учетом цели, возраста учащихся, достоверности и взаимного уважения. Модель ориентирована на системное использование наставничества, жизненных историй, совместных проектов и цифрового сторителлинга во взаимодействии школы, семьи и махалли.

Ключевые слова: опыт старшего поколения, межпоколенческое обучение, педагогический механизм, наставничество, рефлексия, сотрудничество школы, семьи и махалли.

Abstract. Drawing on international, CIS, and national sources, the article examines the conditions for integrating older generations’ life and professional experience into student education. An integrative analysis informed a four-component mechanism combining experience selection, intergenerational cooperation, reflection, and outcome assessment. The analysis shows that lived experience does not become educational content automatically; it requires pedagogical mediation based on a clear purpose, age appropriateness, factual reliability, and mutual respect. The proposed model supports the systematic use of mentoring, life stories, collaborative projects, and digital storytelling through school-family-mahalla cooperation.

Keywords: older generations’ experience, intergenerational learning, pedagogical mechanism, mentoring, reflection, school-family-mahalla cooperation.

KIRISH. Jamiyatning tez o‘zgarishi avlodlar o‘rtasidagi bilim almashuvini murakkablashtirmoqda. O‘quvchi raqamli axborotni tez topishi mumkin, biroq mehnat madaniyati, mas’uliyat, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, sabr va ijtimoiy hamjihatlik kabi hayotiy sifatlar tayyor ma’lumot shaklida o‘zlashtirilmaydi. Ular real tajriba, kuzatish, muloqot va shaxsiy xulosa chiqarish orqali shakllanadi. Shu nuqtada katta avlod vakillarining oilaviy, kasbiy va fuqarolik tajribasi maktab tarbiyasini hayot bilan bog‘laydigan muhim ijtimoiy-pedagogik resursga aylanadi.

O‘zbekistonda masalaning me’yoriy asosi izchil shakllangan. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligi, milliy tarbiyaviy merosni avlodlararo yetkazish hamda natijani indikatorlar asosida baholashni belgilaydi [15. 2019:5, 7, 67 va 69-bandlar]. Vazirlar Mahkamasining 816-son qarorida nuroniyning boy hayotiy tajribasi, amaliy bilim va ko‘nikmalarini umumta’lim maktablaridagi uchrashuvlar va tarbiyaviy soatlar orqali yoshlarga yetkazish nazarda tutilgan [14. 2019:13-band]. PQ–92-son qaror esa “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyilini va

tajribali nuroniylarni ta'lim muassasalariga biriktirishni joriy etgan [13. 2023:4-band]. Demak, institutsional imkoniyat mavjud; muammo uni bir martalik tadbirdan maqsad, hamkorlik faoliyati, refleksiya va baholashga tayangan pedagogik tizimga o'tkazishdadir.

Xalqaro adabiyotlarda avlodlararo dasturlar yoshlar va katta avlod vakillarini umumiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda birlashtiradigan tizimli tashabbuslar sifatida izohlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar maktablaridagi tajribalar bunday faoliyatni ijtimoiy xizmat, o'quv mazmuni va mahalliy hamjamiyat ehtiyojlari bilan bog'lash mumkinligini ko'rsatadi [1. 2003:B.151–165]. Maktabga asoslangan dasturlar o'quv mazmunini boyitishi, o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi va jamoa bilan aloqani kuchaytirishi mumkin [7. 2002:B.305–334]. Avvalgi sharhlarda o'quvchilarning katta avlod haqidagi tasavvuri, ijtimoiy ko'nikmalari va muloqotida ijobiy siljishlar qayd etilgan, ammo dasturlar davomiyligi, mazmuni va baholash vositalari bir xil emas [5. 2019:B.363–376; 6. 2018:B.451–468]. Shu sabab yangi tizimli sharhlar ijobiy xulosalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi: o'quvchilarning keksalik va qarish haqidagi tasavvurlari bo'yicha dalillar umidli bo'lsa-da, ruhiy farovonlikka ta'sirni ko'rsatadigan yuqori sifatli tadqiqotlar hali kam [2. 2024:B.2–3, 20]. Demak, muammo katta avlod tajribasidan foydalanishning zarurligini e'lon qilishda emas, balki uni ilmiy asoslangan pedagogik jarayonga aylantirishdadir.

Milliy va MDH tadqiqotlari masalaning mintaqaviy xususiyatlarini ochadi. Niyozova avlodlar muloqoti, ustoz-shogird modeli, hayotiy tajribaga asoslangan loyiha hamda oila va maktab hamkorligini asosiy vositalar sifatida ko'rsatadi [12. 2025:B.122–128]. Rossiyadagi 125 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi ishtirok etgan tadqiqotda 76,8 foiz bolada eyjizm belgilari aniqlangani maqsadli gerontologik ta'lim zarurligini ko'rsatadi [9. 2023:B.337–347]. Boshqa tadqiqotda katta avlodga ijobiy munosabat real muloqot cheklanganda deklarativ bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [10. 2019:B.124–126]. Qozog'iston tajribasi esa avlodlar dialogini o'zaro tushunish, bag'rikenglik va empatiya asosida, har ikki tomon o'rganadigan jarayon sifatida qurish zarurligini tasdiqlaydi [17. 2022:B.24–32]. Biroq ko'rib chiqilgan mintaqaviy manbalarda tajribani pedagogik saralashdan kechiktirilgan baholashgacha bo'lgan funksional zanjir yaxlit mexanizm sifatida yetarli aniqlashtirilmagan. Ushbu dalillar teng sheriklik va refleksiyani modelning majburiy komponentlari sifatida ajratishga asos beradi.

Maqolaning maqsadi – katta avlod tajribasini o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga kiritishning tarkibiy-mantiqiy mexanizmlarini aniqlash va maktab-oila-mahalla hamkorligida qo'llashga mo'ljallangan konseptual modelni asoslash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, tuzilmali integrativ tahlil usulida bajarildi. PubMed/PMC, WHO, UNESCO, SpringerLink, Frontiers, Wiley, PsyJournals va CyberLeninka ochiq ilmiy resurslari hamda LexUZ bazasida “intergenerational learning”, “intergenerational programs in schools”, “older adults and children”, “intergenerational contact”, “katta avlod tajribasi” va “uzluksiz ma'naviy tarbiya” tayanch iboralarini bo'yicha manbalar ko'rib chiqildi. Tahlil korpusiga 2002–2026-yillarda e'lon qilingan, maktab yoshidagi bolalar yoki avlodlararo dasturlarni loyihalashga bevosita aloqador taqrizli maqolalar, tizimli sharhlar, xalqaro metodik qo'llanmalar, MDH nashrlari hamda O'zbekistonning ilmiy va rasmiy manbalari kiritildi. Klinik mazmunga tor yo'naltirilgan va pedagogik o'zaro faoliyatni ochib bermaydigan materiallar asosiy tahlildan chiqarildi.

Manbalar besh analitik belgi bo'yicha qiyoslandi: dastur maqsadi; ishtirokchilarning o'zaro roli; tajribani uzatish shakli; pedagog-fasilitator vazifasi; natijani baholash usuli. Mazkur mezonlar asosida takrorlanuvchi g'oyalar tematik sintez qilinib, mexanizm komponentlari ishlab chiqildi. Maqola empirik samaradorlikni isbotlamaydi; taklif etilgan model keyingi tajriba-sinov tadqiqoti uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Katta avlod tajribasining pedagogik resursga aylanishi. Hayotiy tajriba – voqea va xotiralar yig'indisi emas. Unda amaliy bilim, qadriyat, qaror oqibati, hissiy kechinma va muayyan tarixiy sharoit birlashadi. Shu bois har qanday tajribani tayyor tarbiyaviy haqiqat sifatida o'quvchiga uzatish metodik jihatdan to'g'ri emas. Ayrim qarashlar davrga xos, subyektiv yoki daliliy jihatdan bahsli bo'lishi mumkin. Pedagogning vazifasi katta avlod vakilining fikrini mutlaqlashtirish emas, balki undagi tarbiyaviy mazmunni ajratish, tarixiy kontekstni ko'rsatish va o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirishdir.

Shu asosda maqolada “pedagogik vositalangan tajriba” ishchi tushunchasi taklif etiladi. U katta avlod vakilining pedagogik maqsadga muvofiq saralangan, o'quvchi yoshiga moslashtirilgan, zarur hollarda daliliy tekshirilgan hamda birgalikdagi faoliyat va refleksiya orqali o'quvchi uchun shaxsiy ma'no kasb etgan hayotiy-kasbiy tajribasini anglatadi. Bunday yondashuv avlodlararo ta'limni bir tomonlama

nasihatdan ikki tomonlama o'rganishga o'tkazadi. Newman va Hatton-Yeo avlodlararo o'rganishning asosiy belgilari sifatida o'zaro manfaat, bilim va ko'nikmalar almashuvi hamda ishtirokchilarning subyektivligini kuchaytirishni ko'rsatadi [11. 2008:B.32–33]. Zamonaviy tadqiqotlarda ham katta avlod tajribasi bilan yoshlarning raqamli va texnologik imkoniyatlari bir-birini to'ldiradigan hamkorlik modeli sifatida talqin qilinmoqda [4. 2026:B.1–3].

Mexanizmning tarkibi. Tahlil natijasida jarayonning quyidagi mantiqiy zanjiri aniqlandi:

TAJIRIBA → PEDAGOGIK SARALASH → HAMKORLIK FAOLIYATI → REFLEKSIYA → QADRIYATLI QAROR VA XULQ

Mazkur zanjir bir-birini shartlaydigan to'rtta mexanizm orqali ishlaydi. Ularning har biri alohida tadbir emas, balki maqsad, ishtirokchi, vosita va kutiladigan natijani bog'lovchi pedagogik funksiyadir.

1-jadval. Innovatsion pedagogik mexanizmlarning tarkibi

Mexanizm	Mazmuni, vositalari va kutiladigan natijasi
1. Motivatsion-qadriyatli	O'quvchi va katta avlod vakilida uchrashuvning shaxsiy va ijtimoiy ma'nosini anglatadi. Dastlabki savolnoma, kutilmalar xaritasi, muammoli savol va hayotiy vaziyat qo'llanadi. Natija – qiziqish, hurmat va faol ishtirokka tayyorlik.
2. Mazmuniy-selektiv	Tajriba maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, daliliy ishonchlilik, axloqiy xavfsizlik va o'quv dasturi bilan bog'liqlik mezonlarida saralanadi. Natija – hayotiy voqeaning tushunarli pedagogik keys, hikoya yoki topshiriqqa aylanishi.
3. Kommunikativ-faoliyatli	Tinglash bilan cheklanmay, mentorlik, intervyu, hunar ustaxonasi, qo'shma loyiha, mahalla tadqiqoti va raqamli hikoya orqali teng sheriklik yaratiladi. Natija – tajribani amalda sinash, muloqot va hamkorlik kompetensiyalari.
4. Refleksiv-baholash	“Nimani bildim – nimaga munosabatim o'zgardi – qanday amal qilaman?” savollari, refleksiv kundalik, kuzatuv rubrikasi, o'zaro fikr va kechiktirilgan qayta o'lchash qo'llanadi. Natija – shaxsiy xulosa, qadriyatli tanlov va kuzatiladigan xulqiy harakat.

Motivatsion-qadriyatli mexanizm. Avlodlararo muloqotning boshlanishida ikki tomon ham nima uchun uchrashayotganini bilishi kerak. O'quvchi katta avlod vakilini faqat “o'tmish haqida gapiruvchi shaxs”, katta avlod vakili esa o'quvchini faqat “nasihat tinglovchi” sifatida ko'rsa, teng hamkorlik yuzaga kelmaydi. Dastlabki bosqichda tomonlarning qiziqishi va ehtiyoji aniqlanib, umumiy muammo tanlanadi. Masalan, “Mahallamizdagi halol mehnat tarixi”, “Suvni tejash bo'yicha kecha va bugun” yoki “Kasbiy xatodan olingan saboq” mavzulari suhbatni mavhum pand-nasihatdan aniq bilish vazifasiga aylantiradi.

Mazmuniy-selektiv mexanizm. Pedagog suhbatdan oldin katta avlod vakili bilan qisqa tayyorgarlik o'tkazadi: hikoyaning asosiy g'oyasi, davomiyligi, o'quvchilar berishi mumkin bo'lgan savollar va nozik ma'lumotlardan foydalanish chegarasi kelishib olinadi. Tarixiy faktlar, sog'liq, huquq yoki xavfsizlikka oid maslahatlar zarur manbalar bilan tekshiriladi. Bu saralash katta avlod ovozi cheklash emas; aksincha, uning tajribasini o'quvchi uchun aniq, ishonchli va zarar yetkazmaydigan mazmunga aylantirishdir.

Kommunikativ-faoliyatli mexanizm. Eng samarali shakl – birga bajariladigan mazmunli ish. O'quvchi intervyu olib oilaviy yoki mahalla tarixini raqamlashtirishi, katta avlod vakili bilan qadimiy hunar bosqichlarini hujjatlashtirishi, ekologik odatlarning avvalgi va hozirgi ko'rinishini qiyoslashi yoki mahalla muammosiga yechim loyihalashi mumkin. Maktab dasturlarida katta avlod vakillari mentor va tutor sifatida qatnashganda o'quv mazmuni, shaxsiy o'sish va jamoaviy aloqalar bir vaqtda qo'llab-quvvatlanadi [7. 2002:B.305–334]. Tizimli sharhlar esa dastur samaradorligi puxta protokol, fasilitator tayyorgarligi, mashg'ulotlarni qayd etish va oldindan belgilangan baholash ko'rsatkichlariga bog'liqligini ko'rsatadi [3. 2017:B.8–9].

Refleksiv-baholash mexanizmi. Tajriba o'quvchi uni qayta fikrlab, o'z qarori bilan bog'lagandagina tarbiyaviy natijaga aylanadi. Shu sabab har bir faoliyat yakunida uch bosqichli refleksiya o'tkaziladi: faktni anglash, qadriyatni izohlash va amaliy harakatni belgilash. Baholash faqat “tadbir yoqdimi?” savoli bilan cheklanmasligi kerak. O'quvchining savol berish sifati, dalil bilan fikrlashi, boshqa avlod nuqtayi nazarini

tushunishi, hamkorlikdagi mas’uliyati va keyingi xulqiy harakati kuzatiladi. WHO avlodlararo loyihalarda ichki monitoringni tashqi yoki nisbatan mustaqil baholash bilan to’ldirish, maqsad, metod, o’zgarish va muammolarni ochiq qayd etishni tavsiya qiladi [19. 2023:B.42–44].

Modelni amalga oshirish shartlari. Birinchi shart – maktab, oila va mahalla o’rtasida aniq vazifa taqsimoti. Maktab pedagogik maqsad va xavfsizlikni, oila rozilik va kontekstni, mahalla esa munosib ishtirokchilar hamda real faoliyat maydonini ta’minlaydi. Ikkinchi shart – o’zaro hurmat va ixtiyoriylik. Katta avlod vakili “ko’rgazmali vosita”, o’quvchi esa passiv tinglovchi maqomiga tushirilmasligi kerak. Uchinchi shart – davomiylik: bir martalik tadbirdan ko’ra kamida bir necha uchrashuv, qo’shma mahsulot va yakuniy taqdimot barqaror munosabat yaratadi. To’rtinchi shart – inklyuzivlik va etik himoya: shaxsiy hikoyani yozib olish, tasvirga olish va ommaga tarqatishdan oldin rozilik olinadi; salomatlik, harakatlanish va raqamli savodxonlikdagi farqlar hisobga olinadi. Jamoa miqyosidagi tadqiqotlar ham ishtirokchilarni tanlash, ularning ehtiyojini eshitish va har ikki avlodga mazmunli rol berish dastur barqarorligi uchun muhimligini ko’rsatadi [8. 2021:B.14–18].

WHO tahliliga ko’ra, ta’limiy hamda avlodlararo muloqotga asoslangan intervensiyalar yoshga oid stereotiplarni kamaytirishning samarali yo’llari qatoriga kiradi; bevosita hamkorlik tashvishni kamaytirib, boshqa guruh nuqtayi nazarini tushunish va empatiyani kuchaytirishi mumkin [18. 2021:B.126–131]. Biroq muloqotning o’zi doimo ijobiy natija bermaydi. Noto’g’ri rejalangan faoliyat stereotipni mustahkamlashi yoki bir tomonni qaram va zaif sifatida ko’rsatishi mumkin [19. 2023:B.2–3]. Shuning uchun taklif etilgan mexanizm muloqotni maqsadli saralash, teng rol, fasilitatsiya va refleksiya bilan himoyalaydi.

Modelning innovatsionligi faqat raqamli vositada emas. Uning yangiligi katta avlod tajribasini tayyor nasihat sifatida emas, o’quvchi bilan birgalikda qayta ishlanadigan pedagogik resurs sifatida talqin etishdadir. Raqamli hikoyachilik, videointervyu yoki onlayn uchrashuv geografik masofani qisqartirishi mumkin, ammo ular yuzma-yuz muloqotning oddiy o’rni bosuvchi vosita emas. Gibril shakl tanlanganda ham umumiy vazifa, rollarning tengligi, xavfsiz muloqot va natijani baholash saqlanishi zarur [3. 2017:B.8–9].

Baholash indikatorlari. Keyingi tajriba-sinovda model samaradorligini to’rtta mezonida tekshirish taklif etiladi: motivatsion-qadriyatli mezon – boshqa avlodga qiziqish va hurmat; kognitiv mezon – hayotiy voqeadan sabab-oqibat va dalilni ajratish; kommunikativ-faoliyatli mezon – tinglash, savol berish, hamkorlik va mas’uliyat; refleksiv-xulqiy mezon – olingan saboqni shaxsiy qaror va amaliy harakatga ko’chirish. Dastlabki va yakuniy diagnostika bilan birga kechiktirilgan o’lchash qo’llansa, qisqa taassurot bilan barqaror o’zgarishni farqlash mumkin. Bu ayniqsa muhim, chunki mavjud tadqiqotlarda kichik tanlama, nazorat guruhining yo’qligi va kuzatuv muddatining qisqaligi ko’p uchraydi [3. 2017:B.8; 16. 2021:104356; 2. 2024:B.19–20].

XULOSA. Katta avlod tajribasi o’quvchilar tarbiyasini hayot bilan bog’laydigan kuchli resursdir, ammo uning pedagogik qiymati yoshi kattalikning o’zidan kelib chiqmaydi. Tajriba maqsadli saralanganda, daliliy va axloqiy jihatdan tekshirilganda, o’quvchi bilan teng hamkorlikda qayta ishlanganda hamda refleksiya orqali shaxsiy ma’noga aylantirilganda ta’lim-tarbiyaviy ta’sir yuzaga keladi.

Taklif etilgan motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-selektiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash mexanizmlari “maktab-oila-mahalla-katta avlod” hamkorligini alohida tadbirlar yig’indisidan izchil pedagogik tizimga o’tkazadi. Modelda katta avlod vakili tajriba sohibi va hamkor, o’quvchi faol tadqiqotchi, pedagog esa mazmunni vositalovchi va jarayonni xavfsiz boshqaruvchi fasilitator sifatida qatnashadi.

Keyingi bosqichda modelning umumiy o’rta ta’lim sharoitidagi samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari, oldingi-yakuniy-kechiktirilgan diagnostika hamda sifat ma’lumotlarini birlashtirgan aralash metodlar orqali tekshirish zarur. Shunda katta avlod tajribasidan foydalanishning qaysi komponentlari o’quvchi qadriyati, muloqoti va xulqiy qaroriga real ta’sir ko’rsatayotgani aniq dalillar bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown R., Ohsako T. A Study of Inter-Generational Programmes for Schools Promoting International Education in Developing Countries through the International Baccalaureate Diploma Programme. *Journal of Research in International Education*, 2003, 2(2), B.151–165. <https://doi.org/10.1177/14752409030022002>

2. Campbell F., Whear R., Rogers M., Sutton A., Barlow J., Booth A., Tattersall A., Wolstenholme L., Thompson-Coon J. What Is the Effect of Intergenerational Activities on the Wellbeing and Mental Health of Children and Young People? A Systematic Review. *Campbell Systematic Reviews*, 2024, 20(3), e1429. <https://doi.org/10.1002/cl2.1429>

3. Canedo-García A., García-Sánchez J.-N., Pacheco-Sanz D.-I. A Systematic Review of the Effectiveness of Intergenerational Programs. *Frontiers in Psychology*, 2017, 8, 1882. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.01882>
4. Chiang W.-W., Chiu K.-I., Shih Y.-H., Pang P., Wu C.-C. STEM and Intergenerational Learning between Older Adults and Young Children in Taiwan: Challenges and Opportunities. *Frontiers in Education*, 2026, 11, 1708939. <https://doi.org/10.3389/educ.2026.1708939>
5. Giraudeau C., Bailly N. Intergenerational Programs: What Can School-Age Children and Older People Expect from Them? A Systematic Review. *European Journal of Ageing*, 2019, 16(3), B.363–376. <https://doi.org/10.1007/s10433-018-00497-4>
6. Gualano M.R., Voglino G., Bert F., Thomas R., Camussi E., Siliquini R. The Impact of Intergenerational Programs on Children and Older Adults: A Review. *International Psychogeriatrics*, 2018, 30(4), B.451–468. <https://doi.org/10.1017/S104161021700182X>
7. Kaplan M.S. Intergenerational Programs in Schools: Considerations of Form and Function. *International Review of Education*, 2002, 48(5), B.305–334. <https://doi.org/10.1023/A:1021231713392>
8. Kenning G., Ee N., Xu Y., Luu B.L., Ward S.A., Goldwater M.B. va boshq. Intergenerational Practice in the Community—What Does the Community Think? *Social Sciences*, 2021, 10(10), 374, B.1–30. <https://doi.org/10.3390/socsci10100374>
9. Melnichenko A.A., Gorelik S.G., Kucherenko N.N., Bogat S.V., Musienko S.K. Izucheniye urovnya gerontologicheskikh znaniy mladshikh shkolnikov. *Sovremennye problemy zdavookhraneniya i meditsinskoy statistiki*, 2023, 2, B.337–347. <https://doi.org/10.24412/2312-2935-2023-2-337-347>
10. Miklyaeva A.V., Postnikova M.I. Sotsialno-psixhologicheskaya struktura mezhpokolencheskikh otnosheniy studencheskoy molodezhi. *Sotsialnaya psixhologiya i obshchestvo*, 2019, 10(2), B.114–126. <https://doi.org/10.17759/sps.2019100209>
11. Newman S., Hatton-Yeo A. Intergenerational Learning and the Contributions of Older People. *Ageing Horizons*, 2008, 8, B.31–39. <https://riolis.ipleiria.pt/files/2011/03/Intergenerational-Learning-and-the-Contributions-of-Older-People.pdf>
12. Niyozova N. Katta avlod tajribasidan foydalanib o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. *Innovation in the Modern Education System*, 2025, 6(56), B.122–128. <https://interoncof.com/index.php/USA/article/view/16170>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PQ–92-son qaror. Toshkent, 2023-yil 11-mart. <https://lex.uz/docs/-6404992>
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 816-son qaror. Toshkent, 2019-yil 27-sentabr. <https://lex.uz/docs/-4532381>
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 1059-son qaror. Toshkent, 2019-yil 31-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4676839>
16. Peters R., Ee N., Ward S.A., Kenning G., Radford K., Goldwater M.B. va boshq. Intergenerational Programmes Bringing Together Community Dwelling Non-Familial Older Adults and Children: A Systematic Review. *Archives of Gerontology and Geriatrics*, 2021, 94, 104356. <https://doi.org/10.1016/j.archger.2021.104356>
17. Teslenko A.N. Sotsialno-pedagogicheskie aspekty problemy mezhpokolennogo vzaimodeystviya (na primere Respubliki Kazakhstan). *Severnyy region: nauka, obrazovanie, kultura*, 2022, 1(49), B.24–32. <https://doi.org/10.34822/2312-377X-2022-1-24-32>
18. World Health Organization. *Global Report on Ageism*. Geneva: WHO, 2021. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240016866>
19. World Health Organization. *Connecting Generations: Planning and Implementing Interventions for Intergenerational Contact*. Geneva: WHO, 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240070264>